

Erkin Vohidov 1936-yilning 28- dekabrda Farg'ona viloyatining Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. Otasi Oltiariqning o'qimishli, obro'li odamlaridan bo'lgan. U tarix fanidan dars bergan, so'ng turli rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Ikkinchi jahon urushining dastlabki yillarida frontga ketib, bosh miyasida oskolka1 jarohati va o'pka shamollashi kasali bilan qaytib keladi, 1945- yilda o'ttiz uch yoshida Toshkentda Olmazordagi kasalxonada vafot etadi. Bir yildan so'ng bo'lajak shoirning onasi ham dunyodan o'tadi. Ikki qisqa umrning yolg'iz yodgori bo'lib, Erkin tog'asi qo'lida qoladi.«Otam frontda ekanida onam qishloq Sovetida sekretar vazifasida ishlar, .qiyinchilik bilan kun kechirar edik. Jo'xori poyasini shimib tilimni qonatganim, bolalarga qo'shilib kunjara yeganim uchun onam yuzimga shapaloq urgani va o'zi kechgacha yigiaganini unutmayman. O'ylab qarasam, bolalik xotiralarimning ko'pchiligi she'rlarga, dostonlarga ko'chgan ekan. «Nido», «Quyosh maskani» poemalari, «Bolalik», «Oqsoqol», Bolalik ekanda» she'rlari o'sha murg'ak tasavur, ilk xotiralarning mevasi bo'lgan*, — deb eslaydi shoir o'ksik bolalik yillari haqida.Toshkentda kechgan bolalik va o'smirlik yillarining eng yorqin esdaliklari shoir G'ayratiy tashkil etgan to'garak mashg'ulotlari va g'oyat olijanob hamda atroflicha bilimdon tog'asining xonadonida bo lib turadigan adabiy suhbatlar bilan bog'liqdir.Chunki bu davralar unda badiiy so'zga ehtirom uyg'otdi, bo'lajak shoirni so'z go'zalligini his etishga o'rgatdi.Chunki bu davralar unda badiiy so'zga ehtirom uyg'otdi, bo'lajak shoirni so'z go'zalligini his etishga o'rgatdi.G'ayratiyning to'garagiga qatnashib yurgan kezarida, hali o'smir yoshida «Mushtum» jurnalida birinchi she'ri bosildi. She'r tagiga «22- maktab 7-«a» sinf o'quvchisi E. Vohidov* deb yozilgan edi.Maktabni oltin medal bilan bitigan Erkin Vohidov Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil oldi. So'ng turli nashriyot va gazeta-jumallarda ishladi. Respublikamiz yoshlarining birinchi jurnali «Yoshlik»ning tashkilotchisi bo'ldi. Keyingi yillarda O'zbekiston Oliy majlisining bo'lim mudiri vazifasida ishladi.E. Vohidovning birinchi she'rlar kitobi «Tong nafasi» nomi bilan 1961- yilda chop etildi. Shundan so'ng uning «Qo'shiqlarim sizga», «Yurak va aql», «Mening yulduzim», «Nido», «Lirika», «Palatkada yozilgan doston», «Yoshlik devoni», «Charog'bon», «Dostonlar», «Muhabbat», «Hozirgi yoshlar», «Tirik sayyoralar», «Iztirob» kabi she'riy to'plamlari nashr qilindi. Buyuk rus shoiri Sergey Yesenin she'rlari va olmon shoiri Gyotening ikki kitobdan iborat ulkan «Faust» fojiasini o'zbekchalashtirishi Erkin Vohidov talantining yana bir qirrasini namoyish qildi. Uning qalamiga mansub «Oltin devor» komediyasi nafaqat yurtimizda, balki chet mamlakat sahnalarida ham qo'yildi. U O'zbekiston xalq shoiri va O'zbekiston Qahramoni unvonlariga musharraf bo'lgan ijodkorlardan.